

“GIDROGEOLOGIYA VA MUHANDISLIK GEOLOGIYASI INSTITUTI” DAVLAT MUASSASASI (O‘ZBEKISTON) VA KOREYA ILMIY- TADQIQOT KONSORTSIUMI, ERG, INC. KITECH, GIANT CHEMICAL (JANUBIY KOREYA) BILAN HAMKORLIK BO‘YICHA O‘ZARO ANGLASHUV MEMORANDUMI	MEMORANDUM OF UNDERSTANDING BETWEEN THE STATE ESTABLISHMENT "INSTITUTE OF HYDROGEOLOGY AND ENGINEERING GEOLOGY" (UZBEKISTAN) AND KOREAN R&D CONSORTIUM, ERG, INC. KITECH, GIANT CHEMICAL (REPUBLIC OF KOREA)
O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi Geologiya fanlari universiteti “Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi instituti” davlat muassasasi ("GIDROINGEO instituti" DM) va Koreya ilmiy-tadqiqot konsortsiumi, ERG, Inc. KITECH, GIANT CHEMICAL bundan keyin birgalikda “Tomonlar” va yakka tartibda “Tomon” deb yuritiladi, Tomonlar ushbu Memorandum orqali gidrogeologiya va geokologiya yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish niyatini bildiradilar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Tomonlar quyidagilarga kelishib oldilar:	State establishment "Institute of Hydrogeology and Engineering Geology" (SE "Institute HYDROINGEO") University of Geological sciences, Ministry of Mining industry and geology of the Republic of Uzbekistan and Korean R&D consortium, ERG, Inc. KITECH, GIANT CHEMICAL (Korea) hereinafter collectively referred to as the "Parties" and individually as the "Party", express the intention of the Parties through this Memorandum to establish mutual cooperation in hydrogeology and geocology. For the purposes of the foregoing, the Parties have agreed as follows:
1-modda	Article 1
Memorandumning umumiy qoidalari va mavzusi: 1.1. Mazkur Memorandum ixtiyoriylik, Tomonlarning teng huquqliligi, vijdonlilik va maqsadga muvofiqlik, har bir Tomonning huquq va manfaatlarini, manfaatlar hamjamiyatini o‘zaro hurmat qilish tamoyillari asosida tuzilgan. 1.2. Tomonlar ushbu Memorandum bir-birining fuqarolik muomalasi subyektlari sifatidagi qonuniy huquq va manfaatlarini buzmasligini, ustav faoliyatini amalga oshirishda mustaqilligini saqlab qolishini tan oladilar. 1.3. Hamkorlikning aniq yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin, ammo ular bilan chegaralanmaydi: 1) hamkorlikda gidrogeologiya va geokologiya yo‘nalishlarida tadqiqotlar o‘tkazish; 2) yer osti suvlarining miqdoriy va sifat ko‘rsatgichlarini o‘rganishning zamonaviy usullari bo‘yicha o‘quv seminar treninglar tashkil etish; 3) suvni tozalash va chuchuklashtirish texnologiyasi bo‘yicha hamkorlik loyihasini amalga oshirish; 4) mutaxassislar, doktorantlar yosh ilmiy xodimlarning malakasini oshirish; 5) hamkorlikda ilmiy maqolalar chop etish	General provisions and subject of the memorandum: 1.1. This Memorandum is concluded on the basis of the principles of voluntariness, equality of the Parties, good faith and expediency, mutual respect for the rights and interests of each Party, community of interests. 1.2. The Parties acknowledge that this Memorandum does not violate the legitimate rights and interests of each other as subjects of civil circulation, retaining their independence in the implementation of statutory activities. 1.3. Specific areas of cooperation between the two parties may include but are not limited to the following: 1) conducting joint research in the fields of hydrogeology and geocology; 2) organization of training seminars on modern methods of studying quantitative and qualitative indicators of underground water; 3) implementation of a cooperation project on water purification and desalination technology; 4) improving the qualifications of specialists, doctoral students and young scientific workers; 5) collaborative publication of scientific articles
2-modda	Article 2
Tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik shartlari: 2.1. Tomonlar gidrogeologiya va geokologiya	Terms of interaction between the Parties: 2.1. The parties have the right to conduct preliminary discussions of the legal capacity and possibilities of

yo'nalishi bo'yicha hamkorlik qilish va uni amalga oshirish uchun tomonlarning huquqiy layoqati va imkoniyatlarini dastlabki muhokama qilish huquqiga ega. 2.2. Tomonlar ushbu Memorandum doirasida amaliy tajriba, dolzarb axborot almashish huquqiga ega. 2.3. Tomonlar belgilangan tartibda har bir Tomonning vazifalarini ustav maqsadlariga erishishga qaratilgan dasturlar, loyihalar va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish huquqiga ega. 2.4. Tomonlar har bir Tomonning ustav faoliyati doirasidagi dasturlar, loyihalar va tadbirlarni amalga oshirishda axborot ko'magini ko'rsatish orqali bir-biriga ko'maklashish huquqiga ega. 2.5. Tomonlar zarur hollarda ushbu Memorandumni amalga oshirish bilan bog'liq aniq masalalarni hal etish uchun ishchi guruhlar (vaqtinchalik yoki doimiy asosda) va muvofiqlashtiruvchi komissiyalar tuzishga haqli. 2.6. Ushbu Memorandum Tomonlar o'zaro hamkorlikning boshqa o'zaro maqbul shakllarini belgilash va rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi. 2.7. Tomonlar Memorandumning bajarilishi munosabati bilan foydalanish huquqiga ega bo'lgan tijorat siri va/yoki boshqa maxfiy ma'lumotlar (keyingi o'rinlarda maxfiy ma'lumotlar deb yuritiladi) boshqa Tomonning yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga oshkor etilishi mumkin emas. 2.8. Ushbu Memorandumga muvofiq, Tomonlar bir-birlari oldida hech qanday moliyaviy majburiyatlarni olmaydilar. 2.9. Hamkorlikning muayyan yo'nalishlarini amalga oshirish uchun Tomonlar o'z vakolatlari doirasida va belgilangan tartibda har bir Tomonning ustav faoliyatiga muvofiq alohida kelishuv va bitimlar tuzishlari mumkin.	the parties for cooperation and implementation in hydrogeology and geoecology. 2.2. The Parties have the right to exchange practical experience, up-to-date information within the framework of this Memorandum. 2.3. The Parties, in accordance with the established procedure, have the right to develop and implement programs, projects and activities aimed at achieving the statutory goals of the tasks of each of the Parties. 2.4. The Parties have the right to assist each other in the implementation of programs, projects and activities within the framework of the statutory activities of each of the Parties by providing information support. 2.5. The Parties have the right, if necessary, to create working groups (on a temporary or permanent basis) and coordination commissions to resolve specific issues related to the implementation of this Memorandum. 2.6. This Memorandum does not prevent the Parties from defining and developing other mutually acceptable forms of interaction. 2.7. Information constituting a trade secret and / or other confidential information (hereinafter referred to as confidential information) to which the Parties gain access in connection with the execution of the Memorandum shall not be disclosed to third parties without the written consent of the other Party 2.8. Under this Memorandum, the Parties do not bear any financial obligations to each other. 2.9. To implement specific areas of cooperation, the Parties may, within their competence and in the prescribed manner, conclude separate agreements and agreements in accordance with the statutory activities of each of the Parties.
3-modda Shartnoma muddati va boshqa shartlar: 3.1. Ushbu Memorandum Tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va 3 (uch) yil davomida amal qiladi. 3.2. Ushbu Memorandum har qanday Tomonning tashabbusi bilan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Tomon boshqa Tomonlarni ushbu Memorandumning amal qilish muddatidan oldin bekor qilinganligi to'g'risida ushbu Memorandumning amal qilishini tugatish sanasidan 1 (bir) oy oldin xabardor qilishi shart. 3.3. Ushbu Memorandumga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda amalga oshiriladi, vakillarning imzolari bilan	Article 3 Term of the Agreement and other conditions: 3.1. This Memorandum shall enter into force upon its signing by the Parties and shall be valid for 3 (three) years. 3.2. This Memorandum may be early terminated at the initiative of any of the Parties. The Party must notify the other Parties of the early termination of this Memorandum 1 (one) month before the date of termination of this Memorandum. 3.3. Any changes and additions to this Memorandum shall be made in writing, certified by the signatures of representatives and sealed by the Parties.

tasdiqlanadi va Tomonlar muhri bilan tasdiqlanadi.


3.4. Ushbu Memorandumning amal qilish muddati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha kelishmovchilik va nizolarni Tomonlar muzokaralar yo'li bilan hal qilishga intiladi.

3.5. Ushbu Memorandum o'zbek va ingliz tillarda bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada, Tomonlarning har biri uchun bir nusxadan tayyorlangan.

**“Gidrogeologiya va muhandislik
geologiyasi instituti” DM**



**Koreya ilmiy-tadqiqot
konsortsiumi nomidan,
ERG, Inc.**


Kyung won Na 

“15” noyabr 2023

3.4. All disagreements and disputes that may arise during the period of validity of this Memorandum, the Parties will seek to resolve through negotiations.

3.5. This Memorandum is drawn up in Uzbek and English, in two identical copies of equal legal force, one copy for each of the Parties.

**Director of the SE "Institute of hydrogeology
and engineering geology**



**On behalf of the Korean
R&D consortium,
ERG, Inc.**


Kyung won Na 

“15” november 2023